

**O'ZBEK, KOREYS TILLARI MORFOLOGIYASI: SIFAT TAHLILI***Xolmurodova N.F.<sup>1</sup>, Juraqulova T.E.<sup>2</sup>**Annotatsiya:*

Mazkur maqolada agglutinatív tuzilishga ega bo'lgan o'zbek va koreys tillarida sifat so'z turkumining morfologik va grammatik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Genetik jihatdan qarindosh bo'lmagan, biroq tipologik o'xshashliklarga ega tillarda sifat kategoriyasining ifodalanishi, grammatik maqomi va gapdagi vazifalarini aniqlash zamonaviy qiyosiy tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotda o'zbek va koreys tillarida sifatlarning mustaqil yoki mustaqil bo'lmagan so'z turkumi sifatida talqin qilinishi, ularning tuslanish imkoniyatlari hamda daraja kategoriyalarining ifodalanish shakllari atroflicha yoritiladi. O'zbek tilida sifat predmetning belgisi, xususiyati va holatini ifodalovchi mustaqil so'z turkumi sifatida qaralib, grammatik jihatdan o'zgarmasligi bilan xarakterlanadi. Koreys tilida esa sifatlar holatni bildiruvchi fe'llar (형용사) sifatida talqin qilinib, zamon, hurmat darajasi va modal shakllar orqali tuslanish xususiyatiga ega. Ushbu jihat ikki til o'rtasida muhim grammatik tafovutlarni yuzaga keltiradi. Maqolada sifatlarning qiyosiy va orttirma darajalari, ularning yasaliş vositalari hamda sintaktik vazifalari misollar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, sifatlarning kesim vazifasida qo'llanishi o'zbek va koreys tillarida turlicha ekanligi ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari koreys tilini o'zbek auditoriyasiga o'qitishda, ayniqsa sifatlarning fe'lga xos xususiyatlarini tushuntirishda nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lishi bilan izohlanadi.

*Kalit so'zlar:* qiyosiy tilshunoslik, o'zbek tili, koreys tili, sifat so'z turkumi, morfologik tahlil, agglutinatív tillar, 형용사 (hyeongyongsa), sifat darajalari, grammatik maqom, kesim vazifasi.

---

So'ngi yillarda qiyosiy tilshunoslik doirasida genetik jihatdan qarindosh bo'lmagan, biroq tipologik o'xshashlikka ega tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada ortib bormoqda. Xususan, agglutinatív tuzilishga ega bo'lgan o'zbek va koreys tillari grammatik tizimining turli sathlarini qiyosiy tahlil qilish tilshunoslik fanining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bu tilning fonetik, leksik va sintaktik jihatdan farqli bo'lishiga qaramay ularning morfologik tizimida, ayniqsa so'z turkumlari tasnifi va grammatik funksiyalarida muayyan umumiyliklar va o'ziga xosliklar mavjud.

Morfologiyaning muhim kategoriyalaridan biri bo'lgan sifat so'z turkumi har bir tilda predmetning belgisini, xususiyati yoki holatini ifodalashda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. O'zbek tilida sifat mustaqil so'z turkumi sifatida qaralib, asosan o'zgarmas xususiyatga ega bo'lsa, koreys tilida sifatlar fe'llik tizimi bilan chambarchas bog'langan bo'lib, holatni bildiruvchi fe'llar(형용사 -hyeongyongsa) sifatida talqin qilinadi. Mazkur farqlar ikki tilning grammatik tabiatidagi muhim tafovutlarni yuzaga chiqaradi va ularni qiyosiy jihatdan o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Mavjud ilmiy ishlarda sifatlar ta'lim metodikasi yoki qiyosiy

---

<sup>1</sup> Xolmurodova Nigora Faxriddinovna, Samarqand viloyati Samarqand davlat chet tillari Roman-german tillar fakultetini, rus filologiyasi kafedra stajyor o'qituvchi

<sup>2</sup> Juraqulova Tursunoy Erkin qizi, Samarqand viloyati Samarqand davlat chet tillari instituti Sharq tillari fakulteti Koreys tili yo'nalishi 1-kurs talabasi.

konstruktsiyalar doirasida o'rganilgan. Jumladan, Jo Min Young 2021; Kamolova, Nazarova 2023; Azimovalar ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

O'zbek tilshunosligida sifat so'z turkumi masalasi an'anaviy tarzda leksik-grammatik birlik sifatida talqin qilinib, uning sematik guruhlari, daraja shakllari va sintaktik vazifalari keng yoritilgan. Koreys tilshunosligida esa sifatlar fe'lining alohida turi sifatida qaralib, zamon, hurmat darajasi va modal shakllari orqali tuslanish xususiyatiga ega ekanligi ta'kidlanadi. Aynan shu jihat tildagi sifatlarni o'zbek tilidagi sifatlar bilan qiyoslashda muhim metodologik masala sifatida namoyon bo'ladi. Mavjud tadqiqotlarning maqsadi - o'zbek va koreys tillarida sifat soz turkumining morfologik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish, ularning grammatik maqomi, tuslanish imkoniyatlari va gapdagi vazifalarini aniqlashdan iborat.[1]

Sifatlarning tuslanishi:

O'zbek Koreys

Shaxs-son: yo'q. yo'q

Zamon qo'shimchasi: yo'q bor Hurmat darajasi: yo'q bor

크다 -> 큼니다 -> 컸어요 -> 클것입니다

Katta -> katta edi -> katta bo'ladi

(sifat o'zgarmaydi) Sifat darajalari:

Qiyosiy - roq - 다

Orttirma - eng - 제일 / 가장 Masalan:

Katta - kattaroq - eng katta[3]

크다 - 더크다 - 제일크다

O'zbek tilida sifat - predmetning belgisi, xususiyati, holatini bildiruvchi mustaqil so'z turkumi. Koreys tilida sifat - holatni bildiruvchi fe'l bo'lib, mustaqil soz turkumi emas.

O'zbek tilida: Katta uy

Koreys tilida: 집이 크다 (chipi kida)

O'zbek tilida sifat kesim bo'lishi uchun to'liqsiz fe'llar yoki "bo'lmoq" fe'li kerak(ba'zan tushib qolgan holatda keladi).

Uy katta edi.

Koreys tilida sifat bevosida kesim bo'la oladi.

집이 큼니다 (chipi kimnida)- uy katta 날씨가 추웠어요 (nalshiga chuvossoyo)-

Globalizatsiya jarayonlari, madaniy va ta'limiy aloqalarning kengayishi natijasida koreys tilini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj O'zbekistonda tobora ortib bormoqda. Shu munosabat bilan koreys tilini o'zbek auditoriyasiga samarali talab etiladi. Ayniqsa, sifatlarning fe'lga xos xususiyatlari, ularning gapda kesim bo'lib kelishi, daraja kategoriyalarining ifodalanishi o'zbek tilida so'zlashuvchilar uchun qiyinchilik tug'diradigan jihatlar hisoblanadi.

O'tkazilgan qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, o'zbek va koreys tillarida sifat so'z turkumi grammatik maqomi va funksional xususiyatlari jihatidan sezilarli farqlarga ega. O'zbek tilida sifat mustaqil so'z turkumi sifatida shakllangan bo'lib, u predmetning belgisi yoki holatini ifodalashda asosan o'zgarmas shaklda qo'llanadi. Koreys tilida esa sifatlar fe'llik tizim bilan uzviy bog'langan bo'lib, holatni bildiruvchi fe'l sifatida zamon va hurmat kategoriyalariga ega holda tuslanadi. Tadqiqot jarayonida aniqlanganki, aynan sifatlarning kesim vazifasida qo'llanishi va ularning grammatik shakllanishi o'zbek tilida so'zlashuvchilar uchun koreys tilini o'rganishda muayyan qiyinchiliklar tug'diradi. Shu bois, koreys tilini o'qitish jarayonida sifatlarning fe'lga xos xususiyatlarini alohida metodik yondashuv asosida tushuntirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xulosa qilib aytganda, mazkur qiyosiy tadqiqot o'zbek va koreys tillarining morfologik tizimidagi umumiyliklar va farqlarni aniqlashga xizmat qiladi hamda qiyosiy grammatika, tarjimashunoslik va chet tilini o'qitish metodikasi sohalarini uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi. [6]

### ***Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:***

1. Fayzullayeva Sevinch Rayimjon qizi. COMPARISON OF KOREAN AND UZBEK LANGUAGES: SIMILARITIES AND DIFFERENCES. TADQIQOTLAR, 65(2), 2025, 10–12.
2. Kim, N. D. X. Razvitie koreevedeniya v Uzbekistane: Obzor lingvisticheskikh issledovaniy. (2023).
3. Marufjon Yuldashev, Dilrabo Andaniyazova. Development of the Detective Genre in American Literature. International Journal Of Literature And Languages, 3(03), 2023, 24–33.
4. Rasulova Nodira Baxtiyorovna. INTERFERENCE OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN KOREAN AND UZBEK LANGUAGES: A LINGUISTIC AND CULTURAL ANALYSIS. Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research, 3(6), 2025, 32–35.
5. Jo Min Young. Features Of The Comparison Of Uzbek And Korean Languages And The Process Of Expanding The Meaning Of Comparison Expressions. International Journal of Advanced Research (IJAR), 9(2021).
6. [No author]. Interference of Phraseological Units in Korean and Uzbek Languages: A Linguistic and Cultural Analysis. Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research, 3(6), 2025, 32–35.